



## CONCEPTUAL APPROACHES TO EFFECTIVE SYSTEMS OF INTERNATIONAL SECURITY

**Habibullo Sh. Sadibaqosev**

*Dean, Doctor of Philosophy in Political Science (PhD)*

*International Islamic Academy of Uzbekistan*

*Tashkent, Uzbekistan*

*E-mail: [h.sadibaqosev@iiau.uz](mailto:h.sadibaqosev@iiau.uz)*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** international security, Western security concepts: realism, liberalism, constructivism, critical approach, Eastern security approaches: “third world” and “postcolonial” approaches.

**Received:** 02.10.24

**Accepted:** 04.10.24

**Published:** 06.10.24

**Abstract:** This article explores the formation of international security concepts, the historical development of Western international security paradigms, international security theories and their differences, as well as Eastern concepts and approaches to international security that emerged in response to Western theories and approaches. The article presents the distinctive features, interconnections, and contrasting aspects of Western and Eastern international security concepts. The analysis in this article draws upon the works of leading scholars in the field of international security, providing a theoretical examination of contemporary international security issues and challenges.

### XALQARO XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING SAMARALI TIZIMLARIGA OID KONSEPTUAL YONDASHUVLAR

**Habibullo Sh. Sadibaqosev**

*Dekan, Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*O'zbekiston xalqaro Islom akademiyasi*

*Toshkent, O'zbekiston*

*E-mail: [h.sadibaqosev@iiau.uz](mailto:h.sadibaqosev@iiau.uz)*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** xalqaro xavfsizlik, G'arb xavfsizlik tushunchalir: realizm, liberalizm, konstruktivizm, tanqidiy yondashuv, Sharq xavfsizlik yondashuvlari: “uchunchi dunyo” va “postkolonial” yondashuvlar.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xalqaro xavfsizlik borasidagi tushunchalarni shakllanishi, G'arb xalqaro xavfsizlik paradigmalarining rivojlanish tarixi, xalqaro xavfsizlik nazariyalari va ularning orasidagi farqlar, G'arb xalqaro xavfsizlik nazariya va

yondashuvlariga qarshi paydo bo'lgan Sharq xalqaro xavfsizlik tushunchalari va yondashuvlari ochib berilgan. Maqolada G'arb va Sharq xalqaro xavfsizlik tushunchalarining o'ziga xos xususiyatlari, o'zaro bog'liqligi va farqli jihatlari bayon qilingan. Maqolani yozishda xalqaro xavfsizlik borasidagi yetuk olimlarning manbalaridan foydalanilgan holda tahlil qilingan va bugungi xalqaro xavfsizlik muammo va masalalari nazariy jihatdan ochib berilgan.

## КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ К ЭФФЕКТИВНЫМ СИСТЕМАМ МЕЖДУНАРОДНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

**Хабибулла Ш. Садыбаков**

*Декан, доктор философии в политологии (PhD),*

*Международная исламская академия Узбекистана*

*Ташкент, Узбекистан*

*E-mail: [h.sadibagosev@iiu.uz](mailto:h.sadibagosev@iiu.uz)*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** международная безопасность, западные концепции безопасности: реализм, либерализм, конструктивизм, критический подход, восточные подходы к безопасности: подходы “третьего мира” и “постколониальный” подход

**Аннотация:** В данной статье рассматривается формирование концепций международной безопасности, история развития западных парадигм международной безопасности, теории международной безопасности и различия между ними, а также восточные концепции и подходы к международной безопасности, возникшие в противовес западным теориям и подходам. В статье изложены характерные особенности, взаимосвязи и различия между западными и восточными концепциями международной безопасности. При написании статьи были проанализированы труды ведущих ученых в области международной безопасности и теоретически раскрыты современные проблемы и вопросы международной безопасности.

### KIRISH

Davlatlararo siyosiy, mafkuraviy va iqtisodiy raqobat tobora keskinlashib borayotgan global siyosiy tizimda xalqaro xavfsizlik o'z dolzarbligini birlamchi hayotiy masala va ustuvor zaruriyat sifatida saqlab qolmoqda. Xalqaro munosabatlarda ushbu eng muhim holat o'laroq tavsiflanadigan xalqaro xavfsizlik va uni ta'minlash borasidagi asosiy to'siqlar sifatida hali-hanuz eski ziddiyatlarning qaytadan kuchayishi hamda yangi ziddiyat o'choqlarining paydo bo'lishi, davlatlar o'rtasidagi nizolar va ixtiloflarning keskinlashuvi, qurollanish poygasi, harbiy harajatlarning

yanada ko‘payishi ko‘zga tashlanmoqda. Ushbu tendensiyalarning salbiy ta‘siri natijasida shuningdek xalqaro iqtisodiy vaziyatning oqsashi va barqarorligining izdan chiqayotganligini ham kuzatishimiz mumkin. Mazkur holatda xalqaro xavfsizlik tizimini chuqurroq anglash G‘arb va Sharq xavfsizlik tushunchalarini tahlil qilish mavjud muammolarni idrok qilish imkoniyatlarini paydo qiladi.

Ma‘lumki, xavfsizlik har qanday davlatning asosiy maqsadidir. Shu sababli ham davlatlarning o‘zaro munosabatlari - ularning xalqaro munosabatlari va hamkorligi asosan xavfsizlik masalalariga qaratilgan[1,7]. Biroq, xavfsizlik tushunchasi kunimizda keng ma‘nodagi tushuncha bo‘lib, u nafaqat harbiy-siyosiy jabhalarni, balki shu bilan birga, energiya, iqtisodiy muammolar, sanoat va texnologiya, migratsiya va o‘zlikni anglash kabi boshqa tashvishlar bilan chuqur bog‘langan. Bularning barchasi birgalikda siyosiy muammolarning zich va murakkab tarmog‘ini yaratib, global xavfsizlikga o‘zaro ta‘sirini o‘rganishni talab qiladi[2,39].

Shu bois ham xalqaro xavfsizlik tadqiqotlari (International Security Studies/ISS) sifatida tanilgan xavfsizlik tadqiqotlari siyosiy fanlarda xalqaro munosabatlar yo‘nalishining kengroq integrativ dasturi doirasidagi turli nazariy yondashuvlar va mavzularni, xususan, harbiy mojarolar, strategik masalalar va milliy xavfsizlikni o‘rganadigan keng tadqiqot maydoniga ega bo‘lgan akademik soha hisoblanadi. Bu ma‘noda xalqaro xavfsizlik tushunchasi va uning insoniyat tarixi davomidagi evolyutsiyasi, turli Sharq va G‘arb jamiyatlarining xavfsizlik paradigma va falsafasining rivojlanish dinamikasi, ularning ortida turgan tarixiy, siyosiy, mafkuraviy va madaniy omillar va jarayonlarning qiyosiy tahlili xalqaro xavfsizlik tizimidagi o‘zgarishlar va ushbu o‘zgarishlarning asosiy sabablarini anglashimizga ilmiy zamin yaratadi.

## ASOSIY QISM

### **Xalqaro xavfsizlik tushunchalari, ahamiyati va o‘ziga xosliklari**

Xavfsizlik tushunchasini etimologik jihatdan ko‘rib chiqsak, uning birinchi paydo bo‘lishi va tarixiy rivojlanishi ikkita lotincha so‘z “se” (-sizsiz inkor qo‘shimchasi) va “cura” (muammo, tashvish) so‘zlarining birikmasidan iborat bo‘lgan securitas so‘zidan olingan. Lotin tilida “Se” qo‘shimchasi biror narsaning inkori yoki yo‘q bo‘lish ma‘nosini bildiradi va olmosh vazifasida qo‘llaniladi, “cura” qayg‘u va tashvish ma‘nolarini bildiradi. Ehtiyotkorlik bilan tarjima qilinganda securus va securitas tushunchasi “tashvishsiz, beg‘am, qayg‘usiz, g‘am-tashvishdan holi, qayg‘u va tashvishlardan ozod bo‘lmoq, xavfsiz bo‘lish” degan ma‘noni anglatadi [3,45].

Shuningdek, ba‘zi kitoblar, bitiklar va asarlarda e‘tibor qilingan, himoyalangan yoki g‘amxo‘rlik qilingan narsani ham anglatadi. Ma‘lumki, “xavotirdan xoli bo‘lish” obyektiv asosga asoslanishi shart emas. Ushbu asos mavjud bo‘lganda, sekuritas qadimgi rimliklar tomonidan “xavfdan ozod bo‘lish va xavfsizlik” deb tushunilgan. Bu asosning yo‘qligi “betashvishlik, g‘aflat

va beparvolik” demakdir. Bu shuni ko‘rsatadiki, securitas tushunchasi Yevropa an‘analarining boshidanoq ham ijobiy, ham salbiy ma‘noda tushunilgan [4,4].

Xavfsizlik masalalari borasida mashhur olim Barry Buzan ham xavfsizlik fenomenini kengroq ma‘noda “davlatlar va jamiyatlarning tahdidlardan xalos bo‘lishga intilishi va ularning raqobatdosh kuchlarga qarshi mustaqil o‘ziga xosligi va funksional yaxlitligini saqlab qolish qobiliyati” sifatida ifodalaydi [5,433]. Boshqa nuqtai nazardan, xavfsizlik - bu belgilangan maqsadga erishishni qiyinlashtiradigan xavf va tahdidlarni aniqlash, aniqlangan xavflarni boshqarish, tahdidlarga qarshi kuchni rivojlantirish va ehtiyot choralarini ko‘rish tizimi. Natijada, xavfsizlik - bu tahdidning yo‘qligi. Xavfsizlik eng asosiy qadriyatdir va u yo‘qolganda, siz ega bo‘lgan hamma narsa yo‘qoladi. Shuning uchun jamiyatlar, ayniqsa davlatlar, ularning xavfsizligiga tahdid solishi mumkin bo‘lgan elementlarni yo‘q qilish uchun qo‘llaridan kelganini qilishga harakat qilishadi [6,15].

G‘arb an‘analarida ruhiyatning falsafiy-psixologik holatini ifodalash uchun “xavfsizlik” tushunchasi birinchi marta Tsiseron va Lukretsiy tomonidan “securitas” sifatida yaratilgan bo‘lib, bu tushuncha birinchi asrdan Pax Romanada qo‘llanila boshlandi. Xususan, Rim davlat arbobi va faylasufi Tsiseron (miloddan avvalgi 106-143 yillar) ushbu tushunchani o‘z asarida birinchi bo‘lib qo‘llagan shaxs bo‘lib, u o‘z kontekstida siyosiy tushuncha sifatida ishlatilgan [7,168]. Securitas “qo‘rquv”, “o‘lim qo‘rquvi” va ularni to‘ldiruvchi “ishonch” kabi his-tuyg‘ular va ular bilan bog‘liq so‘zlarni anglatadi. Din ham bu his-tuyg‘ular orasida, ya‘ni “qo‘rquv” va undan halos bo‘lish nuqtai nazardan paydo bo‘ladi.

“Securitas” so‘zi birinchi marotaba Tsiseron asarlarida paydo bo‘lgan bo‘lsa-da, bu so‘z Qadimgi Yunonistonda xavfsiz yoki xavfsizlik ma‘nosida turli xil so‘zlar bilan ishlatilganligi ko‘rinadi. Yunon tarixchisi Fukidid (miloddan avvalgi 460-400 yillar) Spartada xavfsizlik siyosatning asosiy maqsadiga aylanganini eslatib o‘tadi va bu holatni tushuntirish uchun kurashda omon qolish ma‘nosini anglatuvchi “*Asphaleia*” so‘zidan foydalanadi. “*Asphaleia*” shuningdek, tinchlantirish, sokinlashtirish, kimnidir boshqa birov haqida ishonitirish, tashvish va qayg‘udan soqit qilishni ham anglatadi [8,83].

Keyinchalik XVII asrlarga kelib Fukididdan ilhomlangan Thomas Hobbes (1588-1679) “xavfsizlik”ni zamonaviy davlat mavjudligining sabablaridan biriga aylantirdi. Aytish joiz, aynan Fukidid qarashlari Hobbes antropologik va siyosiy falsafasining asosini tashkil etadi. Hobbes falsafasida Levifanning tug‘ilishi bilan xavfsizlik fuqarolar urushlarini oldini olish uchun davlatga yuklangan mas‘uliyatga aylandi. Davlatning paydo bo‘lishini xavfsizlik va himoyaga bo‘lgan ehtiyoj bilan izohlagan Hobbsning fikricha, tabiatan oqilona ratsional egoistlardir. Ishonchsizlik odamlar o‘rtasidagi jismoniy va ruhiy notenglikdan kelib chiqdi. Boshqacha qilib aytganda, odamlar ishonchsizlik nima ekanligini bilish orqali xavfsizlik nima ekanligini

tushunishadi. Shu ma'noda insonlar o'z xavfsizligini ta'minlash uchun tabiiy holatida doimo to'qnashuvda bo'ladilar. Chunki, Thomas Hobbesga ko'ra, tabiat holati yaxshi holat emas, u anarxik va xaotik ko'rinishga ega va tartibni saqlash uchun yuqori hokimiyat yo'qligi sababli barcha bir-biri bilan bilan kurashadigan vaziyat vujudga keladi. Bu yerdan ko'rinib turibdiki, Hobbes Leviasanni taklif qilishining asosiy sababi shundaki, odamlar ularni qo'rquvda ushlab turish va bo'ysundirish uchun umumiy kuchga ega bo'lmaganda, ular urushda bo'lishadi va bu urush hammaning hammaga qarshi urushi (*bellum omnium contra omnes*) sifatida namoyon bo'ladi [9,12].

Zamonaviy davlatlarning asosiy elementlaridan biri bo'lgan suverenitet tushunchasi, Hobbes ta'biri bilan aytganda, zamonaviy davlatning "superaus" (oliy hokimiyat) sifatidagi yagona vakildir. Bu shaklda davlatning o'z chegaralaridagi siyosiy va ijtimoiy hayotda hukmronlik qilishini ko'rsatadi. Umuman olganda, suverenitet masalasining o'rtaga chiqishi bilan xalqaro xavfsizlik tushunchasi va masalalarini ham paydo qildi.

Xalqaro xavfsizlik tizimi an'anaviy ravishda davlatga asoslangan tushunchaga ega. Gollandiyalik huquqshunos Grotius (1583-1645) fikricha, davlat xavfsizligini xalqaro tizim xavfsizligidan ajratib bo'lmaydi. Xuddi shunday, xalqaro institutlar va tashkilotlar xalqaro maydonda davlat xavfsizligini kafolatlaydi. Shu munosabat bilan tinchlikni saqlaydigan va xavfsizlikni kafolatlaydigan xalqaro tashkilotlarni tashkil etishni rag'batlantirish zaruriyati yuzaga keladi. Grotius hatto o'rta asrlarda xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash uchun xalqaro kollektiv xavfsizlik tizimiga ishora qiladi. Xalqaro tizimda davlatlarning harakatlarini cheklovchi qoidalar mavjud bo'lmagan hollarda, davlat tashqi tahdidlardan o'zini himoya qilish uchun qoldiriladi. Shu munosabat bilan davlatning o'z xavfsizligiga tahdidlarga qarshi mudofaa choralarini ko'rishi asosiy zaruriyatdir[10,314].

Biroq, xavfsizlikning xalqaro siyosatga aylangani 20-asr siyosiy arxitekturasi natijasidir. Milliy xavfsizlik Sovuq urush sharoitida mafkuraviy shakllanish bilan qayta belgilandi va zarur institutsionallashuv bilan yuqori darajadagi siyosatga aylandi[11,35]. Milliy xavfsizlik deganda davlat tomonidan uning siyosiy, iqtisodiy va harbiy manfaatlariga muvofiq belgilab berilgan qadriyatlar va ushbu qadriyatlarni saqlab qolishga qaratilgan sa'y-harakatlar tushuniladi, milliy xavfsizlik siyosati esa ushbu doiradagi barcha davlat faoliyatini boshqaradigan yuqori darajadagi siyosat hisoblanadi.

### **Xalqaro xavfsizlikka nisbatan G'arb yondashuvi**

G'arbda paydo bo'lgan xavfsizlik va xalqaro xavfsizlik tushunchasi bu realizmdir. Qadimgi Yunonistondan beri G'arb dunyosiga asos bo'lib kelgan "kuchli haqdir, kuch-qudratga egalik" yondashuviga asoslangan *realistik siyosat* xalqaro xavfsizlik tizimida ustuvorlikka erishdi. Realizmning nazariy ildizlari yunon olimi Fukididning "Peloponnes urushlari tarixi" nomli asariga

asoslanadi[12,61]. Uning falsafiy yo'llarining ichki butunlashuvi va to'liq yaxlitligi esa 1469-1527 yillarda yashagan Niccolo Machiavelli o'zining "Hukumdor" nomli asarida erishadi. Shuningdek, realistik nazariyani rivojlantirishda Thomas Hobbesning "Leviathan" nomli asari bu sohada tilga olingan muhim asarlardan biri hisoblanadi. Biroq, xalqaro munosabatlar adabiyotida birinchi original va texnik foydalanish Hans J. Morgenthauga tegishli bo'lib, xavfsizlik konsepsiyasi "milliy manfaat", "kuch" va "xalqaro siyosat" kabi atamalar bilan xalqaro tizimni tavsiflashda qo'llaniladigan muhim tushunchalardan biriga aylandi. Urushlar va Sovuq urushi davrida realizm o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqadi.

Sovuq urushdan keyin *neorealistik yondashuv* o'rta chiqdi va u xalqaro tizim murakkab o'zaro bog'liqlik (interdependence) asosida shakllanganligini ilgari sura boshladi. Tadqiqotchilar Roberth Keohane va Joseph Naylor harbiy va bosqin tashqi siyosat vositalari endi davlatlarning ko'p qirrali va farqilashgan manfaatlarini ta'minlashning yagona va eng mos vosita emasligini ta'kidlaydilar [13,6]. Shu bilan birga ular iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarni amalga oshirish uchun majburiy bo'lmagan vositalar va yumshoq kuch zarurligini ilgari surishadi.

Davlatlar o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yish va qo'llab-quvvatlashda xalqaro institutlarning muhimligini ta'kidlagan holda, *liberal institutsional yondashuv* xalqaro tashkilotlar va xalqaro rejimlar umumiy qoidalar, umumiy xulq-atvor va o'zaro munosabatlar tamoyili asosida faoliyat yuritishi davlatlar o'rtasidagi muloqot va ishonchni mustahkamlashini ta'kidlaydi. Ushbu nazariyaga ko'ra, "dunyo shunday birlashmoqdaki, biz yagona jahon jamiyati haqida gapirishimiz mumkin va bu qoidalar jahon jamiyati uchun tartibsizlikdan qutulish va tinchlikda taraqqiyot uchun majburiydir. Boshqacha qilib aytganda, xalqaro rejimlar birlashish, integratsiya, taraqqiyot va yuksalish timsollaridir[14,19]. Dunyo tinchligini ta'minlashda muhim o'ringa ega bo'lgan bu sub'ektlardan davlatlar va nodavlat subyektlar o'rtasidagi hamkorlikni misol qilish mumkin. Ayniqsa, bugungi kunda dunyo davlatlari ichki va tashqi siyosatlarini ana shu aktorlar tomonidan qabul qilingan qarorlar asosida shakllantirishlari mumkin.

Garchi liberal institutsional yondashuvi asosan realistik doirada harakatlanadigan bo'lsa-da, xalqaro institutlar hamkorlik va barqarorlikni ta'minlashda "*strukturaviy realistlar*" tan olganidan ko'ra muhimroq ekanligini ta'kidlaydi. Keohane va Martinning fikriga ko'ra, "xalqaro tashkilotlar va tuzulmalar ma'lumot bilan ta'minlashi, tranzaksiyalar xarajatlarini kamaytirishi, majburiyatlarni yanada ishonchli qilishi, muvofiqlashtirish uchun markazlarni yaratishi va umuman o'zaro mantiqning ishlashini osonlashtirishi mumkin" [15,42]. Shu sababli, davlat hokimiyati va turli manfaatlar bilan cheklangan dunyoda o'zaro kelishuv asosida faoliyat yurituvchi xalqaro institutlar barqaror tinchlik elementi bo'lishi mumkin.

Shuningdek, 1989 - 1991 yillar oralig'idagi "global burilish" global transformatsion nomini olgan jarayonlar realist va neorealist yondashuvlarga qarshi chiqqan ba'zi muqobil qarashlarni,

jumladan, *“ijtimoiy konstruktivist”*larni (*Social constructivists*) o‘rtaga chiqardi[16,319]. Ularning fikriga ko‘ra, xalqaro siyosatning asosiy tuzilmalari qat’iy moddiy emas, balki ijtimoiydir. Shunga ko‘ra, ular xalqaro munosabatlar haqidagi fikrlash tarzimizni o‘zgartirish yanada mustahkam xalqaro xavfsizlik tomon tubdan siljish yaratishi mumkinligini ta’kidlaydilar. Bundan maqsad esa biz yashayotgan dunyoni “tushuntirish” emas, balki bu dunyoni “tushunish”dir. Konstruktivistlar realistik nazariyaning universal qonunlar, aniqlik va bashoratni ilgari suruvchi pozitivistik yondashuvini tamoman rad etishadi. Bu holat 1990-yillarning boshlarida xalqaro munosabatlar adabiyotida pozitivistlar va postpozitivistlar deb nomlanuvchi pozitsiyalar o‘rtasida paydo bo‘lgan gnoseologik tafovutni aks ettiradi[17,36].

Alexandr Wendt kabi postpozitivist ijtimoiy konstruktivistlar xalqaro siyosatga neorealislarga qaraganda boshqacha yondashadilar [18,391]. Neorealistlar xalqaro tizim faqat moddiy vositalar va imkoniyatlarni taqsimlashdan iborat deb hisoblasalar, sotsial konstruktivistlar xalqaro tizimni ijtimoiy munosabatlar mahsuli deb bilishadi. Wendtning ta’kidlashicha, xavfsizlik dilemmasi bir biriga nisbatan ishonchsiz, o‘z niyatlari haqida eng yomon taxminlarni keltirib chiqaradigan va oxir-oqibat o‘z manfaatlarini o‘z-o‘zini ta’minlash nuqtai nazaridan belgilaydigan subyektlar orasidagi tushunchadan iborat bo‘lgan ijtimoiy konstruktsiya hisoblanadi. Bundan farqli o‘laroq, xavfsizlik jamiyati esa davlatlar o‘zlarining kelishmovchiliklarini urushsiz hal qilishlari va bir-birlariga ishonishlari mumkin bo‘lgan umumiy bilimga asoslangan boshqa ijtimoiy tuzilmadir[19,80].

G‘arbda paydo bo‘lgan xalqaro xavfsizlik nazariyalaridan yana biri *tanqidiy (critical) yondashuvlari* hisoblanadi. 1990-yillarda paydo bo‘lgan xavfsizlikning ushbu yondashuvlari harbiy masalalardan tashqari odamlar, atrof-muhit va o‘ziga xoslik (identity) kabi boshqa muammolarni o‘z ichiga olgan xavfsizlik tushunchasini rivojlantirishga ahamiyat qarata boshladi. Ushbu xavfsizlik yondashuvi va tushunchalar Kopengagen maktabi, Aberistuita maktabi va Parij maktabi ko‘rinishida o‘rtaga chiqdi va rivojlandi. Ular xalqaro xavfsizlikni juda keng tushunchalar sifatida sharhlaydilar.

### **Sharq xavfsizlik tushunchalarining o‘ziga xos xususiyatlari**

Xavfsizlik ayniqsa xalqaro xavfsizlik tushunchalari va yondashuvlaridagi G‘arbning ustun mavqeyiga qarshi paydo bo‘lgan xalqaro xavfsizlik yondashuvlari 1980-1990 yillarda o‘rtaga chiqqan *“Uchinchi dunyo” xavfsizlik yondashuvlari* va *Postkolonial xavfsizlik yondashuvlaridir*. Ushbu xalqaro xavfsizlik yondashuvlari Sharqda paydo bo‘lgani va rivojlangani uchun Sharq xalqaro xavfsizlik tushunchalari sifatida talqin qilinadi.

Uchinchi dunyoda xavfsizlik bu davlatlarning harbiy xavfsizlikdan tashqari boshqa xavfsizlik masalalarini ham hisobga olish zarurligini nazarda tutadi. Realistik va neorealistik yondashuvlardan farqli o‘laroq, ular asosiy e’tiborni davlat qurish jarayonlarida uchinchi dunyo

davlatlari va jamiyatlaridagi ishonchsizliklar, duch keladigan tashqi va ichki tahdidlarni hisobga olishni ta'kidladilar. Ular davlatlararo munosabatlar va harbiy xavfsizlikni realistik yondashuvlar bilan o'zaro tushunishni kengaytirish tarafdori bo'lishsa-da, ba'zi xavfsizlik nazariyalaridan farqli o'laroq, xavfsizlikni belgilashda har doim ham davlatga asoslangan xavfsizlik tushunchasini inkor qilmaydi. Ushbu yondashuvning yana bir jihati shundaki, uchinchi dunyoda Shimol-Janub tarangligi bilan yuzaga keladigan ko'plab xavfsizlik muammolari Sharq-G'arb tarangligi tufayli chetda qolmoqda.

Yana bir G'arb xavfsizlik yondashuviga muqobil qarash postkolonial xavfsizlik yondashuvlari bo'lib, u 1990-yillarda rivojlana boshlagan tanqidiy (critical) xavfsizlik yondashuvlari qatoriga kiradi. Postkolonial xavfsizlik yondashuvlari Global Janubdagi odamlar va jamoalar boshdan kechirayotgan ishonchsizliklar mustamlakachilik amaliyotlari orqali qanday yuzaga kelganiga e'tiborni qaratdi va xavfsizlik nutqini esa dunyodagi davom etayotgan bilim-kuch munosabatlarini qamrab olganligini ilgari surdi [20,121].

Turli xilligiga qaramay, uchinchi dunyo xavfsizlik yondashuvlari va postkolonial xavfsizlik yondashuvlarining xavfsizlikni o'rganish bo'yicha qarashlari eng umumiy ma'noda "G'arb"ning jahon siyosatidagi ierarxik nutqlari va amaliyotlarini tanqid qilish orqali shakllanadi. Biroq, ikkala yondashuv ham ushbu ierarxik nutqlar va amaliyotlarni turlicha tushunishga ega.

Uchinchi dunyo xavfsizligi yondashuvlari, xavfsizlik bo'yicha tadqiqotlar, odatda, Sovuq urush kontekstida ikki qudratli davlatning xavfsizlik tashvishlari va manfaatlariga mos ravishda o'rganilganligi va Uchinchi dunyoda xavfsizlik faqat shu nuqtai nazardan tushunilganligini tanqid qiladi[21,547]. Sovuq urush davrida Uchinchi dunyo faqat G'arb nuqtai nazaridan o'rganilganligiga e'tiroz bildirib, uni boshqa yondashuvlar bilan baholash kerakligini ko'rsatadigan tadqiqotlar olib bordi[22]. Uchinchi dunyo xavfsizligi yondashuvlari G'arbnings ierarxik nutqi va jahon siyosatidagi amaliyotini tanqid qilib, zamonaviy davlatlar tizimining rivojlanishini tarixiylashtirish bilan birga, bu rivojlanishni tahlil qiluvchi tarixiy sotsiologiyani xavfsizlik tadqiqotlari bilan birlashtiradi.

Uchinchi dunyo xavfsizligi yondashuvlariga ko'ra, Uchinchi dunyoda xavfsizlik ko'proq davlat qurish jarayoni, rivojlanish va rejim barqarorligi o'lchovlari bilan bog'liq. Ayrim tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, Uchinchi dunyoda xavfsizlikni ta'minlash xalqaro status-kvoning o'zgarishi bilan mumkin [23,1]. Uchinchi dunyoda xavfsizlik bu davlatlarning zamonaviy davlatlar tizimidagi siyosiy va iqtisodiy mavqei bilan bevosita bog'liq[24,40].

Bu holat Amitav Acharya tomonidan Sovuq urush tugashi bilan xavfsizlik tadqiqotlarining muhim masalalaridan biri sifatida taqdim etildi. Acharyaning ta'kidlashicha, dunyodagi ko'plab muammolarni Yevropadagi o'zgarishlar nuqtai nazaridan tushunish uchun periferiyani (chekka hududlarni) tahlil markaziga qo'yish kerak, chunki markazda o'rnatilgan tartib faqat Uchinchi



dunyoda migratsiya yoki iqtisodiy tengsizlik kabi beqarorlik masalalariga qaratilgan. Tomas esa Sovuq urushning tugashi bilan dunyoning status-kvosi global miqyosda tus ola boshlaganligi sababli Uchinchi dunyo o‘rniga Global Janub atamasi qo‘llanila boshlaganini ta’kidlaydi[25,299].

Postkolonial xavfsizlik yondashuvlari xavfsizlik qurbonlarining (jabrlanuvchilarning) muammoli vakili kontekstida ishlaydi. Postkolonial xavfsizlik yondashuvlariga ko‘plab muhim postkolonial mutafakkirlar (Edvard Said, Xomi Bhabha, Gavatri Spivak) va ularning kontseptual qarashlari, shuningdek, “qurbon tadqiqotlar” (subaltern studies) ta’sir ko‘rsatdi. “Jabrlanuvchi” (subaltern) tushunchasi birinchi marta qurbonlik tadqiqotlarida “sinf, tabaqa, yosh, jins (gender-o‘ziga xoslik) tushunchalari nuqtai nazaridan har qanday quyi va past darajada bo‘lganlar” deb ta’riflangan[26,154].

Postkolonial xavfsizlik yondashuvlari tugallangan va endigina boshlangan davr yoki jarayonni tasvirlash uchun postkolonializm tushunchasidan foydalanmaydi. Bu ikki ma’noga ega. Birinchidan, postkolonial tafakkur postkolonial va imperialistik amaliyotlarning nasl-nasabini kuzatish orqali G‘arbning qanday G‘arbg aylanганиni tushuntiradi. Shu nuqtai nazardan, mustamlakachilik o‘tgan davr emas, chunki G‘arbni “ustun” qilib ko‘rsatadigan mustamlakachilik amaliyotlari davom etmoqda. Ikkinchidan, postkolonializm nafaqat mustamlakachilikka, balki mustamlakachilikdan keyingi amaliyotlarning cheklanishiga ham ishora qiladi[27]. Buning sababi shundaki, davlat mustamlakachilik paytida va undan keyin qarshilik sifatida ko‘rsatadigan ba’zi amaliyotlar, masalan, mustaqillik uchun kurash davrida amalga oshirilgan ba’zi millatchilik amaliyotlari, va G‘arbning “to‘liq” holati va uning “yuqori” sifatini ishlab chiqaradi. Chunki istisno amaliyotlar bilan milliy davlat qurilishi jahon siyosatida jins, sinf va irqga asoslangan ierarxik va mustamlakachilik nutqlarini takror ishlab chiqarishga va ayrim segmentlarning ishonchsizligiga yordam beradi[28].

### XULOSA

Xulosa qiladigan bo‘lsak, xavfsizlik va xalqaro xavfsizlik tushunchasi uzoq tarixga ega bo‘lsada, G‘arb xavfsizlik paradigmasi 1950-yillardan rivojlana boshladi. Ikki jahon urushi orasidagi xavfsizlik harbiy xavfsizlik tushunchasiga ega ekan, Sovuq urushini boshlanishi va Yadroviy qurollanish xalqaro xavfsizlikka nisbatan ilmiy va amaliy yondashuvlarni o‘zgartirdi. Bunga noharbiy omillar mafkuraviy kurash, texnologik taraqqiyot, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish va boshqalar katta turtki bo‘ldi. Sharq xavfsizligi yondashuvlari xavfsizlikni o‘rganishda jahon siyosatidagi “G‘arb”ning ierarxik amaliyotlari va nutqlarini tanqid qildi. Uchinchi dunyo xavfsizligi yondashuvlari faqat harbiy o‘lchovga asoslangan tashqi yo‘naltirilgan xavfsizlik yondashuvini rad etdi va xavfsizlikning muhim yondashuvlarini ishlab chiqishda katta rol o‘ynadi. Postkolonial xavfsizlik yondashuvlari “xalqaro”ni tushunish qanchalik xavfsizlik elementiga aylanganini ko‘rsatdi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Williams, Paul D. (2013). *Security Studies: An Introduction*, 2nd ed. London: Routledge, p.7.
2. Walt, Stephen (1991). *The Renaissance of Security Studies*. *International Studies Quarterly*, 35: pp.211–39.
3. Daniel Frei (1990). *Was ist unter Frieden und Freiheit zu verstehen?* Wolfgang Heisenbert/Dieter S. Lutz (Ed.) „Sicherheitspolitik kontrovers“, Schriftenreihe Band 291/I, Bundeszentral für politische Bildung, Bonn, s.45
4. Daniel Frei (1990). *Was ist unter Frieden und Freiheit zu verstehen?* O'sha manba, s.4
5. Buzan, Barry (1991). *People, States and Fear*. London: Harvester Wheatsheaf, p.433.
6. Morgan Patrick (2006). *“International Security Problems and Solutions”* Published by CQ Press, 1st Edition, p.15
7. Brauch G.H. (2015). *“Güvenliğin Yeniden Kavramsallaştırılması: Barış, Güvenlik, Kalkınma ve Çevre Kavramsal Dörtlüsü” Uluslararası İlişkilerde Çatışmadan Güvenliği*, Der: Mustafa Aydın vd., İstanbul, İstanbul Bilgi Üniversitesi Yayınları, 167-197. s.168.
8. Robert B. Strassler, ed. (2008). *The Landmark Thucydides: A Comprehensive Guide to the Peloponnesian War*, New York: Simon & Schuster, p. 83.
9. Hobbes Thomas, (2006). *Thomas Hobbes: Leviathan*. Rogers, G. A. J. Schuhmann, Karl (A critical ed.). London: Bloomsbury Publishing. p. 12.
10. Krasner D.S. (2009). *Power, the State and Sovereignty: Essays on International Relations*. London, New York: Routledge, p.314.
11. Peter J. Katzenstein, ed., (1996). *The Culture of National Security: Norms, Identity, and World Politics* (New York: Columbia University Press, p.35.
12. Donald Kagan (2004). *The Peloponnesian War*, New York: Penguin, p.61.
13. Richard Schultz (1990). ‘Introduction to International Security’, in Schultz et al. (eds.), *Security Studies*, pp. 45–6.
14. G. John Ikenberry (2009). *“Liberalism in a Realist Word: International Relations as an American Scholarly Tradition”*, *International Studies* 46, 1&2, pp. 203-19.
15. Robert Keohane and Susan Martin (1995), *“The Promise of Institutional Theory”*, *International Security*, Vol. 20, No 1, p. 42.
16. Adler, Emanuel (1997). *“Seizing the Middle Ground: Constructivism in World Politics”*. *European Journal of International Relations*, 3, no.3: pp. 319-363.
17. Ken Booth and Marysia Zalewski (1996). *International Theory: Positivism and Beyond*, Cambridge, Cambridge University Press, p.36.

18. Alexander Wendt (1992), “Anarchy is What States Make of It: The Social Construction of Power Politics”, *International Organisation*, Vol. 46, No 2, pp. 391–425.
19. Alexander Wendt (1995), *Social Theory of International Politics*, Cambridge, Cambridge University Press, p. 80.
20. Muhammed Ayoob (1997). “Defining Security: A Subaltern Realist Perspective”, Keith Krause and Michael C. Williams (edit.) *Critical Security Studies: Concepts and Cases*, Minneapolis, University of Minnesota Press, pp.121-146.
21. Bagdat Korany (1986). “Strategic Studies and the Third World: A Critical Evaluation”, *International Social Science Journal*, Vol. 38, No 4, pp. 547-652.
22. Errol Henderson (2015). *African Realism: International Relations Theory and Africa’s War in the Postcolonial Era*, Lanham, Rowmann and Littlefield.
23. Caroline Thomas (1987). *In Search for Security: The Third World in International Relations*, Boulder, Lynne Rienner, p.1.
24. Ayoob, M. (1995). *The Third World Security Predicament: State-Making, Regional Conflict and International System*, Boulder, Lynne Rienner, p. 40-46.
25. Amitav Acharya (1997). “The Periphery as the Core: The Third World and Security Studies”, Keith Krause and Michael Williams (edit.), *Critical Security Studies: Concepts and Cases*, London, UCL Press, pp. 299-327.
26. Robert C. Young (2005), *Colonial Desire: Hybridity in Theory, Culture and Race*, London, Routledge, p. 154.
27. Sankaran Krishna (1999). *Postcolonial Insecurities: India, Sri Lanka and the Question of the Nationhood*, Minneapolis, University of Minnesota Press.
28. Sankaran Krishna, o’sha manba.